



VOLUME 5, MAY 2026

ISSN: 3060-4958



"A special kind of beauty exists which
is born in language, of language,
and for language."

– GASTON BACHELARD



**UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY**

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz



t.me/thelinguaspectrum



Artistic and aesthetic features of irony

Ibragimova Extiyotxon Ismailovna

ehtiyot1973@yandex.ru

Candidate of Philological Sciences, Professor
Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

This article examines irony as a multidimensional linguistic, philosophical, ethical, aesthetic, and axiological phenomenon in human discourse and contemporary culture. Irony is interpreted not merely as a stylistic device, but as a sociocultural mechanism that enables a speaker to maintain critical distance from established norms, expose hypocrisy, and reassess moral and social values. The study analyzes the dual axiological nature of irony: on the one hand, it functions as a means of critically evaluating deviations from accepted norms and shortcomings of reality; on the other, it may express the speaker's subjective intellectual superiority and provide an encoded way of avoiding responsibility. Particular attention is paid to the aesthetic functions of irony in postmodern literature, where it creates multiple layers of meaning, destabilizes genre and textual boundaries, and encourages the reconstruction of value systems. These functions are discussed through the ideas of Umberto Eco, I. Pasi, V. Pivoyev, and V. Jankelevich.

Keywords

irony, ethics, aesthetics, axiology, postmodernism, social norms, subjectivity, value transformation

Ironiyaning badiiy-estetik xususiyatlari

Ibragimova Extiyotxon Ismailovna

ehtiyot1973@yandex.ru

Filologiya fanlari nomzodi, professor
Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada ironiya inson nutqi va zamonaviy madaniyatdagi ko'p qirrali lingvistik, falsafiy, etik, estetik hamda aksiologik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Ironiya oddiy stilistik vosita emas, balki so'zlovchiga shakllangan me'yorlardan tanqidiy masofa saqlash, ikkiyuzlamachilikni fosh etish va axloqiy hamda ijtimoiy qadriyatlarni qayta baholash imkonini beruvchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida talqin etiladi. Tadqiqot ironiyaning ikki tomonlama aksiologik tabiatini ochib beradi: bir tomondan, u me'yordan og'ishlar va voqelikdagi nuqsonlarni tanqidiy baholash vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, so'zlovchining subyektiv intellektual ustunligini ifodalashi hamda javobgarlikdan qochishning shifrlangan usuli bo'lishi mumkin. Postmodern adabiyotda ironiyaning ko'p qatlamli ma'nolar yaratishi, janr va matn chegaralarini beqarorlashtirishi hamda qadriyatlar tizimini qayta qurishga undashi alohida yoritiladi. Mazkur funksiyalar Umberto Eko, I. Pasi, V. Pivoyev va V. Yankelevich qarashlari asosida muhokama qilinadi. Natijalar ironiyaning til vositasi, axloqiy baholash shakli va estetik transformatsiya omili sifatidagi o'rnini aniqlashtirib, gumanitar fanlarda uni kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, tahlil shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni ham yoritadi.

Kalit so'zlar *ironiya, etika, estetika, aksiologiya, postmodernizm, ijtimoiy me'yorlar, subyektivlik, qadriyatlar transformatsiyasi*

Художественно-эстетические особенности иронии

Ибрагимова Эхтиётхон Исмаиловна

ehtiyot1973@yandex.ru

PhD, доцент,

Кандидат филологических наук, профессор
Ферганский государственный университет,
Фергана, Узбекистан

Аннотация *В статье ирония рассматривается как многомерное лингвистическое, философское, этическое, эстетическое и аксиологическое явление в человеческой речи и современной культуре. Она трактуется не только как стилистический приём, но и как социокультурный механизм, позволяющий говорящему сохранять критическую дистанцию по отношению к установленным нормам, разоблачать лицемерие и переоценивать моральные и социальные ценности. Исследование раскрывает двойственную аксиологическую природу иронии: с одной стороны, она служит средством критической оценки отклонений от нормы и недостатков действительности; с другой стороны, может выражать субъективное интеллектуальное превосходство говорящего и выступать зашифрованным способом уклонения от ответственности. Особое внимание уделяется эстетическим функциям иронии в постмодернистской литературе, где она создаёт многослойность смыслов, дестабилизирует жанровые и текстовые границы и побуждает к перестройке системы ценностей. Эти функции анализируются на основе идей Умберто Эко, И. Паси, В. Пивоева и В. Янкелевича. Полученные результаты уточняют роль иронии как языкового средства, формы нравственной оценки и фактора эстетической трансформации, требующего комплексного изучения в гуманитарных науках и современной культурной коммуникации.*

Ключевые слова *ирония, этика, эстетика, аксиология, постмодернизм, социальные нормы, субъективность, трансформация ценностей*

KIRISH

Ironiya inson nutqi va tafakkuridagi ko'p qirrali ma'no qatlamlarini ifoda etuvchi lingvistik, falsafiy va madaniy hodisa sifatida doimo mutaxassislarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Uning tabiati nafaqat ma'nolarning qarama-qarshiligi, balki inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifoda etish qobiliyatida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, ironiyaning etik va

estetik xususiyatlarini o'rganish – zamonaviy lingvistika, falsafa, axloqshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb masala hisoblanadi.

Ironiya insonlararo aloqada axloqiy munosabatlarning maxsus shakli sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat fikr bildirish vositasi, balki axloqiy pozitsiya, intellektual yuksaklik va qadriyatlar tanlovi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Ironiya orqali inson mavjud haqiqat, me'yor yoki fe'l-atvorga nisbatan tanqidiy masofani saqlaydi. Bu holatda inson o'z nuqtayi nazarini mutlaq deb bilmasligi, balki uni shubha va mulohaza bilan qayta ko'rib chiqishi ironiyaning etik mohiyatini belgilaydi.

Shuningdek, ironiya axloqiy adolatni ta'minlash vositasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Masalan, nomuvofiqlik, ikkiyuzlamachilik, riyokorlik kabi holatlar ironiya orqali ochib beriladi va tanqid etiladi. Bu holda ironiya ijtimoiy tanqid vositasi bo'lib, jamiyatdagi axloqiy buzilishlarga qarshi kurash uslubini shakllantiradi.

Ironiya – bu jamiyat qadriyatlar tizimini implitsit tarzda translyatsiya qilish usuli bo'lgani sababli, etika doirasida u aksiologik toifa sifatida qaraladi. Ironiya – bu me'yoriy holatdan og'ish; u o'zining me'yoriy, haqiqiy, real deb hisoblaydigan narsasidan o'zi og'ishga uchraydi, undan voz kechib, unga qarama-qarshi bo'lgan mavjud emas holatga yashirinadi va aynan shu nuqtadan unga hujum qiladi – uni fosh etadi, oshkor qiladi, niqobini yechadi (Pasi, 1980, p. 61). Normaga zid bo'lgan har qanday holat qiymatlar shkalasida manfiy baholanadi va shu orqali masxara qilishga, kulgiga sazovor bo'ladi.

Ironiyaning aksiologik funksiyasi uning jamiyatdagi mavjud qadriyatlar tizimiga nisbatan tanqidiy munosabatni ifoda etadi. Pasi ta'kidlaganidek, ironiya "me'yoriy" deb tan olingan narsalardan og'ish orqali ishlaydi; u shunchaki masxara emas, balki jamiyatdagi reallikning muqaddas deb e'tirof etilgan shakllarini shubha ostiga qo'yadi va fosh etadi. Bu jihatdan qaralganda, ironiya nafaqat til vositasi, balki qadriyatlarni qayta baholash mexanizmi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotshunoslik va falsafiy etika nuqtayi nazaridan ironiya – bu axloqiy me'yorlarning shakllanishi va buzilishi o'rtasidagi tenglashtiruvchi vosita. Mazkur holatda ironiya, J. Derrida va M. Fukoning dekonstruktiv qarashlaridagi kabi, haqiqatni

yo'q qilish emas, balki uni qayta o'ylash va yangi ma'nolarda qayta qurishga harakatdir.

Ironiya qiymatlar shkalasida "e'tiborga loyiq emas", "masxarali", "noreal" kabi belgilar bilan ishlaydi va bu orqali mavjud tuzilmalarni zohiran rad etib, aslida ularning mustahkamligi va mosligi haqida o'quvchida qayta mulohaza uyg'otadi.

Etikada ironiyaning aksiologik toifa sifatida tahlil qilish – uning mazmuniy asosida "axloqiy nomuvofiqlik" yotayotganini tan olishdir. Ironiya normaning buzilishiga nisbatan munosabat bildiruvchi vosita sifatida jamiyatdagi falsafiy va madaniy jarayonlarning in'ikosi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ironiya – bu shunchaki yumor yoki tanqid emas, balki murakkab aksiologik fenomendir. U jamiyatdagi ustuvor deb e'tirof etilgan ma'naviy, axloqiy va ideologik tuzilmalarga nisbatan mulohazakor, bahamjihat yoki hatto radikal pozitsiyani bilvosita ifoda etuvchi mexanizmdir. Shu jihatdan, ironiya har doim ham kulgi emas – u fikr va qadriyatlar iyerarxiyasidagi qattiq silkinishni anglatadi.

Ironiya san'at va adabiyotda juda muhim estetik funksiyalarni bajaradi. U asarning ichki ma'no qatlamini chuqurlashtiradi, o'quvchi bilan muallif o'rtasidagi masofani yaratadi va natijada estetik baholashning yangi chuqurliklarini ta'minlaydi.

Ironiyaning estetik mohiyati shundaki, u ma'nolar o'yinini yaratadi, mutlaq ma'nodan voz kechish va uning o'rniga ko'p qirrali tafakkurni ilgari suradi. Bu ifodaning "na aytilgan, na aytilmagan" qismi orqali shakllanishiga bog'liq. Estetik ironiya, ayniqsa, postmodernistik adabiyotda katta rol o'ynaydi – u o'quvchini standart ma'nolardan shubhalanishga chorlaydi va so'z, obraz va voqelik o'rtasidagi munosabatni qayta ta'riflaydi.

Umberto Ekoning fikricha postmodernistik muallif ironiya orqali "o'tmishning muhabbati bilan, biroq undan masofada turib" gapiradi. Bunday masofa – bu estetik pozitsiya, u o'quvchini hamfikirlik emas, balki intellektual mulohazaga undaydi.

Ironiyaning aksiologik va estetik vazifalarini o'rganish, avvalo, uning qiymatlar shkalasidagi vazifalarini belgilashga yo'naltirilgan. Ironiya – bu tanqidiy vosita, jamiyatdagi o'zgarishlar va yangilanishlarga yo'l ochishga yordam beradigan estetik mexanizm. Pasi o'zi ta'kidlaganidek, ironiya me'yorga qarshi turadi va uning rad etilgan holatlarga nisbatan munosabati jamiyatdagi axloqiy va estetik farqlarni ko'rsatadi.

Ironiya – bu qarshi qo'yish, ya'ni haqiqiy va nominal, yangilik va an'analar o'rtasidagi dialogning xususiyatidir. U janrlar va janrlar orasidagi transformatsiyalar orqali o'zining estetik va axloqiy kuchini ifoda etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Har bir jamiyatning me'yorga qarshi va me'yorga mos qiymatlari bo'ladi. Ironiya, shubhasiz, jamiyatdagi qadriyatlar iyerarxiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, postmodernistik adabiyotda ironiya o'zining aksiologik o'rnida aniq bir normani rad etadi va uning o'rniga alternativ qiymat tizimini taqdim etadi. Buning eng yaqqol misoli – ironik yumorni e'lon qilgan adabiyotlar, ularda asosiy maqsad qiymatlar tizimini qayta qurish, amaldagi axloqiy va ijtimoiy qoidalarga shubha bilan qarashga yo'naltirishdir.

Ironiyaning asosiy vazifasi jamiyatning qabul qilgan me'yorlariga shubha bilan qarash, ularni tahlil qilish va ularning nutqiy va ijtimoiy konstruksiyasiga nisbatan shubha uyg'otishdir. Eko ironiyani "o'zini va boshqalarni tanqid qilish" va "o'zgarishga yo'l ochish" (Eko, 1997, pp. 635–640) deb ta'riflaydi. Shu tariqa u jamiyatning ijtimoiy va madaniy tuzilmalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish va yangilashga yo'l ochadi.

Ironiyaning estetik funksiyasi, eng avvalo, uning kreativ va formal transformatsiyalarga ta'sir qilish qobiliyati bilan bog'liq. Postmodernizm da ironiya janrlar orasidagi shubhali o'tmishni aniqlash va yangi estetik kodlarni paydo qilish uchun amalga oshiriladi. Ironiya, shuningdek, yozuvchiga har qanday holatni yangi, tushunishni talab qiluvchi nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur holatda ironiyaga olib kelgan badiiy shakllar ko'pincha janrlar va matnlar orasidagi chegaralarni buzish va ularni yangicha maqsadlarda qayta yaratishda namoyon bo'ladi.

Estetik manfaatlarga ko'ra, ironiya aksiologik ta'sir ko'rsatishning samarali usulidir. U nafaqat go'zallik va estetik quvvatni izlash, balki san'atning odamlar orasidagi axloqiy munosabatlarni qayta konstruksiyalashga qaratilgan harakati sifatida ham namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda yo'nalishlarni qayta belgilash, madaniy belgilarni, janrlarni va ijtimoiy strukturalarni qayta shakllantirish kabi amaliy vazifalar ko'rsatiladi.

Ironiya o'zining aksiologik va estetik mazmuni orqali jamiyatdagi o'zgarishlar va rekonstruksiya jarayonlariga hissa qo'sha oladi. Bu jarayonda u faqat axloqiy me'yorlarni yoki madaniy qadriyatlarni tanqid qilish bilan cheklanmaydi, balki jamiyatning yangi qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. Shunday qilib, ironiya hech qachon to'liq "muvofiq" emas, balki har doim jamiyatning isloh etishga ehtiyoji bor qismlarini oshkor qiladi. U o'zida jamiyat ehtiyojlari va mavjud qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni shakllantiradi.

Ironiyaning aksiologik maqomi ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, vaziyat yoki hodisaga nisbatan tanqidiy baholash usuli sifatida ironiya jamiyatdagi mavjud qadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy me'yorlarning aksini tashkil etadi. Ikkinchi tomondan, ironiya gapirayotgan kishiga o'zining ustunligini his qilish imkonini beradi, u subyektiv nuqtayi nazarni aks ettiradi. Agar gapirayotgan kishining dunyoqarashi jamiyatning qadriyatlariga zid bo'lsa, ironiya shaxs va jamiyat o'rtasidagi kelishmovchilikning signalini tashkil etadi: "Ironiya subyekt tomonidan o'zining "ideal" haqidagi tasavvurining haqqoniyligiga va umumiy ahamiyatiga ishoniladi, shu nuqtadan u obyektini baholaydi va shuning uchun o'z bahosiga javobgar bo'lishi kerak, lekin u o'z bahosini kodlaydi, shifrlaydi, yashiradi, tashqi

ma'noga yashirin, qayta o'rtaki ma'noga qarshi bo'lgan munosabatni tanishtiradi, demak, javobgarlikdan qochishga harakat qiladi" (Pivoyev, 2000, p. 94).

Ironiyaning aksiologik mavqei haqidagi mazkur fikrni kengroq tahlil qilish va aniqlashtirishga qaratilgan qadamlar quyidagicha bo'lishi mumkin. Ironiyaning aksiologik vazifalaridan biri, uning jamiyatdagi qadriyatlarga bo'lgan munosabatidir. Ironiya, tanqidiy funksiyasini bajarar ekan, ko'pincha jamiyatning ma'naviy va axloqiy me'yorlariga nisbatan ishlaydi. Bu holatda ironiya o'zining tanqidiy elementi sifatida jamiyatning eng ulug' qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishga yordam beradi. Misol uchun, qachonki so'zlovchi ijtimoiy muammolarni fosh qilish uchun ironiyani ishlatasa, u subyektiv baholashni obyektiv haqiqatga qarshi qo'yadi, shu bilan birga jamiyatning standartlari va qadriyatlarini tanqid qiladi. Bu jihatdan, ironiya jamiyatning, ya'ni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirishning bir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, u jamiyatning o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojini anglatadi. Masalan, madaniy salohiyatni tiklash yoki axloqiy qat'iyatlar bilan bog'liq savollar ko'tarilganda, ironiya vositasida insonlar o'z fikrlarini ifodalab, ijtimoiy harakatlarga turtki beradilar.

Ironiyaning ikkinchi muhim xususiyati – subyektivlikdir. Agar ironiya jamiyatning aql-idrok va axloqiy qoidalarini tanqid qilsa, u holda ironiyani ishlatuvchi shaxs o'zining subyektiv fikrini ifoda etadi. Bu nuqtayi nazar subyektivizm va individuallikni anglatadi, ya'ni ironiya bilan ishlatuvchi shaxs o'zini jamiyatdagi "o'ziga xos" nuqtayi nazar bilan boshqalardan ajratishni xohlaydi. Uning ideal holati yoki "haqiqatni aniqlash"i har doim jamiyatning umumiy qadriyatlariga zid bo'lib, shaxsning o'z "muvofig" va "to'g'ri" deb bilgan tizimlariga asoslanadi. Bu holatda ironiya shaxsga o'zining haqiqiy nuqtayi nazarini belgilash imkonini beradi, chunki u jamiyatning amalga oshirishga harakat qilgan qadriyatlariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri baho berishga yo'l qo'ymaydi,

balki uning ichki fikrlarini shaxsiy simvolik va shifrlangan tarzda ifoda etadi.

Suqrot davrida ironiya jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi konfliktni aks ettiradi. Suqrot o'z dunyoqarashi bilan jamiyatni tanqid qilgan va uning qadriyatlarini rad etgan. Bu holda ironiya intellektual qudratga aylandi, ya'ni falsafiy mushohadada jamiyatning umumiy ta'limotlariga zid bo'lgan nuqtayi nazarni yoritishga harakat qilgan.

Ironiya va konflikt bir-birini quvvatlab turadi, chunki ironiya hamisha intellektual pozitsiyaning ifodalanishi yoki etikadagi buzilishlarni fosh qilish imkonini beradi. Bu konflikt shaxsning oliy maqsadi bo'lgan haqiqatning o'zligini ifoda etish orqali jamiyatga bo'lgan o'z mavqeini aniqlashga xizmat qiladi.

Pivoyevning ta'rifida aytilganidek, ironiya shifrlash va yashirish mexanizmi orqali javobgarlikdan qochishga harakat qiladi. Bu har tomonlama ko'rilsa, ironiyaning ikkala tomonlama rolini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Bir tomondan, ironiya o'zining falsafiy funksiyasi orqali haqiqatni topishga intiladi. Ammo ikkinchidan, u shifrlash, qator bo'shliqlar orqali o'zining tashqi bahosini yoki eng oliy mezonini yashirishga harakat qiladi, chunki ironiya, boshqalardan o'zining haqiqiy niyatlarini yashirib, ularni soxtalashtirishga intiladi (Pivoyev, 2000, p. 106). Bu jamiyatdagi ba'zi bir holatlarga bo'lgan shaxs uchun muhim psixologik usuldir.

Ironiyaning aksiologik mavqei shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. U tanqidiy vosita bo'lish bilan birga, subyektiv qarashlarni ifodalash va qadriyatlarga zid bo'lgan nuqtayi nazarlarni ifoda etish vositasi sifatida amalga oshiriladi. Shunday qilib, ironiya faqat tanqid yoki masxara emas, balki shaxsning tafakkuri va qarashlarini ko'rsatishning muhim yo'lidir. U jamiyatning tanqidiy mulohazalarini bildirish bilan birga, subyektiv xavfsizlikni ta'minlaydi.

Ironiya etika doirasida moslashuvchan baholashning o'ziga xos usuli sifatida tavsiflanadi. Ayni shu holat, etik tahlilni

lingvistik yondashuvlar bilan bog'laydi. Ironiyani etik universalisiya sifatida tushunish bevosita tildan foydalanish bilan bog'liq, shuning uchun etika doirasida ironiya "... o'ynash imkoniyati, havoda uchish, mazmun bilan jonglyorlik qilish, uni rad etish yoki qayta yaratish" (Yankelevich, 2004, p. 12), deb ta'riflanadi yoki "... imkoniyat, vosita, munosabat, san'at obrazi, fikrlash xususiyati" (Pasi, 1980, pp. 60–61) deb ko'rsatiladi. Aniq bo'lishicha, bu kabi ta'riflarda tasviriy tarkib ustun bo'lib, ularning bir tomondan ironiyani aksiologik kategoriya sifatida tushunishning ahamiyatini ko'rsatgani haqiqatan ham ko'rinadi, ammo, boshqa tomondan, bu

hodisaning mohiyatini tushunishga yordam bermaydi.

XULOSA

Ironiya – bu faqat so'z o'yini emas, balki inson axloqi va ma'naviyati, tafakkuri bilan bog'liq murakkab ma'no qatlamlarini qamrab olgan hodisadir. Uning etik xususiyati insonga haqiqat va qadriyatlarga tanqidiy munosabatda bo'lish imkonini bersa, estetik xususiyati adabiy va badiiy asarlarda ma'no ko'p qirraligini, konmatnlar o'yinini va o'quvchi bilan muallif o'rtasidagi intellektual muloqotni ta'minlaydi. Ironiya jonli, nutqiy jarayonda yuzaga chiquvchi subyektiv modallik ko'rinishlaridan biri bo'lib, so'zlovchining salbiy munosabatini ifoda etuvchi uslubiy vositadir.

References:

1. Eko, U. (1997). Postmodernizm, ironiya, zanimatelnost. In *Imya rozy* (pp. 635–640).
2. Pasi, I. (1980). Ironiya kak esteticheskaya kategoriya. *Nauka*.
3. Pivoyev, V. M. (2000). Ironiya kak fenomen kultury. *Izdatelstvo PetrGU*.
4. Yankelevich, V. (2004). Ironiya. *Proshcheniye. Respublika*.

Kupaysinova Z.	Using digital reading platforms to enhance motivation in English reading	713
Rajabova Z.K., Azizova N.B.	Russian Phraseology in the Context of Teaching Russian as a Foreign Language: Traditions and Innovations	721
Israilova D.A.	Diagnostic tools for measuring the effectiveness of fairy tale-based language teaching in preschool education	726
TRANSLATION		732
Ahmedova M.M.	Pragmatic Adaptation in Film Translation: Strategies for Achieving Adequacy in Modern Cinema Discourse	733
HISTORY		744
Jabbarova I.Kh.	Developing participation in water management through water consumers' associations and the "Water workers' school"	745
Sulaymanov A.N.	The scientific heritage of Uzbekistan anthropologists and their contribution to the development of science	751
Sulaymanov A.N.	Anthropological research in Central Asia: the experience of Uzbekistan	760
Yuldashev S.B.	Information on the early arab campaigns to Fergana in arabiclanguage sources	766
Yuldashev S.B.	Reflection of the status of women in medieval fergana valley society in historical sources	772
Ibragimova E.I.	Artistic and aesthetic features of irony	778
CONTENTS		784